

**ADABIYOT DARSALARIDA “INSENIROVKA” DAN FOYDALANISH**

**Movlonova Larisa Bozorovna**

*Qashqadaryo viloyati shahrisabz tumani MMTBga qarashli*

*39-umumiy o’rta ta’lim maktabining ona tili va adabiyot fani o’qituvchisi.*

*Tel: +998914532364*

*E-mail [larisamovlonova@gmail.com](mailto:larisamovlonova@gmail.com)*

**Annotatsiya** .Adabiyot -so‘z san’ati sifatida inson ruhiyati , his-tuyg‘ulari , tafakkuri , ma’naviy olamini boyitishda eng asosiy vosita hisoblanadi .Bu fanning maqsadlarini amalga oshirish uchun ona tili va adabiyot fani o‘qituvchilari ,avvalo, o‘quvchilarga adabiyot faniga qiziqtira olishi zarur .Dars jarayonini samarali tashkil etish ,o‘rganilgan asarlardan parchalarni sahnalashtirish, ijodkorlar siyemosini yaratish ham kitob mutolaasiga mehr uyg‘otadi .Maqolada o‘quvchilarni badiiy asar mutolaasiga qiziqtirishda sahna ko‘rinishlaridan foydalanish haqida so‘z boradi .

**Kalit so‘zlar:** Drama , inssenirovka , obraz , monolog , dialog , remarka , repetitsiya , san’at

Adabiyot‘-so‘z san’ati .Chunki u inson qalbiga so‘z orqali nozik tuyg‘u va ruhiyatni olib kiradi , shaxsni ma’naviy kamolatga yetaklaydi .Ta’lim muassasalarida o‘qitiladigan adabiyot faninig asosiy maqsadi ham mustaqil va ijodiy fikrlay oladigan , o‘zgalar fikrini anglaydigan , kitobxonlik madaniyati shakllangan shaxsni kamol toptirishdan iborat .

Maktabda adabiyot darslarini o‘qitish jarayonida o‘quvchilarning faolligini oshiradigan asosiy jihat badiiy asar obrazlarining tahlilidir ,chunki qahramonlar taqdiri o‘quvchilarni befarq qoldirmaydi .O‘qituvchi asarlar orqali o‘quvchilarni mustaqil fikrashga o‘rgatadi ,ularda milliy g‘ururni kamol toptiradi ,natijada dars samaradorligi ham oshadi .Asosiy vazifamiz ham o‘quvchilarni milliy qadriyat va an'analarimiz ruhida tarbiyalashdir .

Avvalo , o‘quvchilarni badiiy asarlarni o‘qishga , asar mazmuni va obrazlarini tahlil qilishga qiziqtira olish zarur .Buning uchun asar muallifi hamda asarning muhim voqealari o‘quvchilarga so‘zlab berilsa yoki asar asosida kichik sahna ko‘rinishlar tayyorlansa maqsadga muvofiq bo‘ladi .O‘quvchilarni guruhlarga bo‘lib ,sahna ko‘rinishi tayyorlash loyiha ishi sifatida uyga vazifa qilib berilsa o‘quvchilar mustaqil izlanadi , ularda hamkorlikda ishslash ko‘nikmasi shakllanadi .Eng muhimi , badiiy asar o‘qishga qiziqish uyg‘onadi .Maktab darsliklarida hayoti va ijod yo‘li haqida ma’lumotlar berilgan ulug‘ shoir , yozuvchilarimiz siyemosini gavdalantirish ham o‘quvchilarda milliy g‘urur , vatanparvarlik tuyg‘ularini rivojlantiradi .Bunda

ijodkorlar yashagan davr ruhiyati ularning kiyinishida , nutqida , xatti -harakatida aks etishi juda muhim . Tarixiy mavzudagi asarlarni o‘qib ,obrazlarini tahlil qilsh o‘quvchilarni buyuk ajdodlarimizni hurmat qilishga ,milliy qadriyatlarimizga e’tiqodli bo‘lishga undaydi . Shu mavzuda tayyorlangan sahna ko‘rinishlari o‘quvchilarning nafaqat ona tili va adabiyot fanidan ,balki tarix ,tarbiya kabi boshqa fanlardan o‘zlashtirgan bilim , ko‘nikma va malakalarini ham mustahkamlaydi . Yana bir muhim jihat ,maktab yoshidan o‘quvchilarning madaniyat va san’at sohasiga qiziqishlarini oshirishga , ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirishga , asar obrazlari tahlilini teran his qilishga yordam beradi . Sahnada rol ijro etish jarayonida aktyorlik va rejissorlik qibiliyatiga ega bo‘lgan iste‘dodli o‘quvchilarni ham namoyon bo‘ladi .

Ma’lumki darsliklarimizda dramatik bo‘lmagan asarlar ko‘p .Bunday asarlarni sahnaga qo‘yishda ” inssenirovka “usulidan foydalanish samara beradi .Inssenirovka - lotincha ”insurgens “ nasriy va nazmiy asarlarni teatr uchun qayta ishlashdir .Inssenirovka badiiy asarning o‘z muallifi tomonidan ham ,yoki boshqa shaxslar tomonidan ham amalga oshirilishi mumkin .Asar inssenirovka qilinganda sahnaga moslashtirib , ba’zan sujetga o‘zgartirish kiritish mumkin ..Badiiy asarlarni dramatik holatga keltirish , asar asosida sahna ko‘rinishi tayyorlash uchun asosan quyidagi ishlar amalga oshirilishi kerak :

- 1 .Asarni to‘liq o‘qib chiqish ,mazmuni , asosiy g‘oyasini anglash ;
- 2.Asar voqealari tasvirlangan davrni o‘rganish ;
3. Asar obrazlarini aniqlash ;
- 4.Matnni monolog va dialoglarga ajratish , izohlarni remarkalarda berish ;
- 5.O‘quvchilarni iqtidoriga qarab rollarni taqsimlash , so‘z va matnlarni berish ;
- 6.Asarda tasvirlangan davrga mos sahnani bezash , liboslar tanlash ;
- 7.Repetitsiya (lotincha ”repetito “- qaytarish ,mashq, tayyorgarlik) qilish .

Badiiy asar asosida sahna ko‘rinishi tayyorlashda o‘qituvchining ko‘magi zarur

Xulosa qilib aytganda ,o‘qituvchi yoshlarda mutolaaga ehtiyoj uyg‘otib ,badiiy asarlarni o‘qishga muhit yaratishi lozim . Chunki bugun o‘quvchilar o‘zları uchun qiziq bo‘lgan ma’lumotlarni ijtimoiy tarmoqlardan olmoqda . Davrimizning eng buyuk ixtiolaridan biri bo‘lgan internet xizmatlaridan foydalanish quvonali holat . Ammo yoshlar undan to‘g‘ri foydalanyaptimi ?Gap shundaki ijtimoiy tarmoqlardagi ma’lumotlarni saralash ,to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanligini anglash uchun ham o‘quvchilarda milliy ma‘naviyat shakllangan bo‘lishi zarur .Milliy ma‘naviyatni yuksalishida esa hech narsa kitobning o‘rnini bosa olmaydi .

Ijodkor o‘qituvchi sifatida o‘zim yozgan she‘rlar hamda inssenirovkalarni adabiyot darslarida qo‘llash uchun tavsiya etaman .

**1 .”Ajdodlar-bu bizning faxrimiz” mavzusida sahna ko‘rinish .O‘zbek elini , tilini dovrug‘ini dunyoga tanitgan buyuk ajdodlarimiz - bizning faxrimiz ,g‘ururimiz**

timsolidirlar .Ular o‘tmishimizni bezab ,kelajagimizga yorqin nur sochuvchi mash’ala kabidir .Sahnaga buyuk ajdodlarimizni taklif etamiz .

Boshlovchi :

Moziyga boqsang , ko‘p dog‘lari bor ,  
To‘marisdek mardu -maydonlari bor ,  
Xalqim deb jon bergan Shiroqlari bor ,  
Ajdodlar -bu bizning faxrimiz !

(Sahnaga To‘maris qiyofasidagi o‘quvchi chiqadi )

To‘maris : Ona xalqim ! Sen uchun kerak bo‘lsa jon fido etgum . Birlashamiz , yovni yengamiz !

Boshlovchi :

Qo‘ng‘irot urug‘li Alpomish zoti ,  
O‘tda yonmas , suvda cho‘kmas qanoti,  
Birlashsa o‘zadi O‘zbekning oti ,  
Ajdodlar - bu bizning faxrimiz !

(Sahnaga Alpomish qiyofasida o‘quvchi chiqadi )

Alpomish :

Ey qadim Qo‘ng‘irot eli ,  
Vatan uchun fido jonimiz .  
Yurt tuprog‘i muqaddas bizga ,  
Gururimiz , sharaf -shonimiz !

Boshlovchi :

Anglamoq chin o‘zbek donolarini ,  
Tinglang :Temur bobom sadolarini ,  
Samo- la sirlashar binolarini ,  
Ajdodlar - bu bizning faxrimiz !

(Sahnaga Amir Temur qiyofasida o‘quvchi chiqadi )

Amir Temur : Bizkim mulki Turon , amiri Turkistonmiz .Millatlarning eng qadimi va ulug‘i turkning bosh bo‘g‘inimiz !

Boshlovchi :

Ulug‘bek ilmi bu ”Ziji Ko‘ragon “  
”Ki olam ko‘rmagan aningdek sulton “  
Alloma vatani ko‘hna Turkiston ,  
Ajdodlar bu - bizning faxrimiz .

(Sahnaga Ulug‘bek timsolidagi o‘quvchi chiqadi)

Ulug‘bek :

Temurbek naslidinmen sulton Ulug‘bek .  
Ki olam ko‘rmadi hoqon maningdek .

Boshlovchi :

Zanjirband she‘rning nazmiy panjasи ,  
She‘riyat ganjiga qilgan hamlasi ,  
Mezonda tensiz ”Devon “ , ”Xamsa “si  
Ajdodlar bu - bizning faxrimiz .  
(Sahnaga Navoiy qiyofasidagi o‘quvchi chiqadi )

Navoiy :

Olam ahli bilingizkim ish emas dushmanlig‘  
Yor o‘ling bir - biringizgakim erur yorlig‘ ish .

Boshlovchi :

Iste‘dod sohibi , davlat arbobi ,  
Hind diyorida ham tabarruk yodi ,  
Andijondan kelur Bobur xitobi ,  
Ajdodlar bu - bizning faxrimiz !  
(Sahnaga Bobur qiyofasida o‘quvchi chiqadi )

Bobur :

Tole yo‘qi jonimg‘a balolig‘ bo‘ldi ,  
Har ishniki ayladim xatolig‘ bo‘ldi ,  
O‘z yerni qo‘yib , Hind sari yuzlandim ,  
Yo rab netayin yuz qarolig‘ bo‘ldi .

Boshlovchi :

Shoira Uvaysiy , Nodira davron ,  
Ash‘orlarin to‘plab tuzmishlar devon ,  
O‘zbekning ayoli ham shoir , sulton ,  
Ajdodlar bu - bizning faxrimiz !  
(Sahnaga Uvaysiy , Nodira qiyofasidagi o‘quvchilar chiqadi )

Uvaysiy :

Mehnatu alamlarda mubtalo Uvaysiyman ,  
Qayda dard eli bo‘lsa oshino Uvaysiyman .

Nodira :

Doda keldim ey salotin sarvari dofim eshit ,  
Sen shahu men benavo lutf ayla faryodim eshit .  
Nodira bodi sabodin senga irsol etgali ,  
Qildi insho bu g‘azalni, ey tabi noshodim eshit .

Boshlovchi :

Zulfiyaxonimning so‘nmagan so‘zi ,  
Ibrat sabog‘idir har bosgan izi ,  
Ustoz deb she‘r bitmish o‘zbekning qizi ,  
Ajdodlar - bu bizning faxrimiz !

(Sahnaga Zulfiya qiyofasidagi o‘quvchi chiqadi )

Zulfiya :

E‘zozlar , ardoqlar uchun tashakkur ,

Asg‘i siz oftobim ,men ziyo siman .

Tonglaringiz kulsin dorilomon hur ,

Baxtim shul o‘zbekning Zulfiyasiman .

Boshlovchi :

Mustahkam vatanim keng sarhadlari ,

Madhini kuylaydi Muhammadlari ,

Otashqalb Abdullo kabi mardlari ,

Ajdodlar bu -bizning faxrimiz !

Istiqlol abadiy kezar Turonda ,

Ulug‘lar ulg‘ayar O‘zbekistonda ,

Mag‘rurlik jo‘sh urar ,vujudda ,qonda ,

Ajdodlar - bu bizning faxrimiz !

## **2. Mirkarim Osimning ”Zulmat ichra nur “ asari asosida sahna ko‘rinishi**

(maktab sahnasi uchun )

Qatnashuvchilar :

Alisher- Navoiyning yoshlik davri

G‘iyosiddin -Alisherning otasi

Mirsaid Kobuliy -Alisherning tog‘asi

Muhammad Ali G‘aribiy - Alisherning tog‘asi .

(Sahna Alisher Navoiy yashagan davrga mos bezatiladi.Alisher cho‘kkalab olib xontaxta ustidagi kitobni varaqlab ,suratlarini ko‘rib o‘tirar edi )

G‘iyosiddin : (Alisherga , tomoshabinlarga qarab )Shul yoshdin kitobga muhabbat qo‘ysa ,ulg‘aygach kutobni ilkidan ayirmay o‘zi bilan asrab yurgay

G‘iyosiddin :

G‘iyosiddin : Ha bul yerga yoshurinib olib ne qiladur desam, kitob ko‘rayotgan ekanlar-da .

Alisher : Otajon , mana bul suratni ko‘ring .Mana bu cherik shotidan chiqayotib qulab tushmoqda , qo‘rg‘on ustinda turganlar o‘q otib qulatg‘on chiqarlar .Mana bunisi pastidin turib qal‘a ustidagilarga o‘q uzmoqda .

G‘iyosiddin : To‘g‘ri anglabsiz o‘g‘lim .(kitobni qo‘liga oladi ) Bu kitobning o‘rni tokchada , ammo siz kitob ko‘rmoqqa yoshlik qilursiz .Yirtib qo‘ysangiz yaxshi bo‘lmas .Ani ikki qo‘y bahosiga sotib olg‘onmen .

Alisher : Men kitobni yirtmayman , avaylab ko‘ramen .

G‘iyosiddin : Aqlli bolasanda , tentak bolalargina ilklariga tushgan kitoblarni pora - pora qiladur .Katta bo‘lg‘oningda senga ajoyib kitoblar sotib olgaymen .Hozircha mana buni o‘ynab yur (sopol qo‘chqorcha beradi )

Alisher :Menga bering .Ani Husaynning qo‘chqori bilan urishtirgaymen .Katta rahmat padari buzrukvorim .

(Alisherning tog‘alari Mirsayid Kobuliy , Muhammad Ali G‘aribiy kirib kelishadi )

Mirsayid : Assalomu alaykum .Sog‘ omonmisiz .

Muhammad Ali :Sizlardan bir xabar olmoq uchun kelgandik .

G‘iyosiddin : Xush kelibsiz inilarim .Tashrifingizdin boshim ko‘kka yetgay .Marhabo , qani marhamat .

Alisher : Assalomu alaykum .

Mirsayid : Vaalaykum assalom .Mullo bo‘ling .(G‘iyosiddinga qarab ) Alisherbek ham ancha ulg‘ayibdur .Zehni o‘tkir bola ko‘rinadi ,nazarimda .

Muhammad Ali : Nigohlaridin ma‘lum aqli paso bu bolaning . G‘iyosiddin : Nevchun ajablanursiz .Tanriga shukrlar bo‘lsinki Alisherbek aqli , zehnli bola .Ko‘chada bolalar bilan o‘ynab tojik tilini ham o‘rganib olg‘on .Onasi forsiy , turkiy g‘azal o‘qib bergenida qulq berib o‘tiradir , hatto ba‘zilarini yod olgan .(Alisherga qarab )

Qani , o‘g‘lim shoir Qosim Anvor ne debdur .

Alisher :

Rindimi oshiqemi , jahon so‘zi jomo chok ,

Bo davlati g‘ami tu bikri jahon chi bok .

Muhammad Ali : Ofarin ,kichkina darvesh .Beparvo rind oshiqlaridanmiz degin .O‘t nafas bo‘lsang ham dog‘i yirtiq chopon bo‘lma .

Mirsayid : Qosim Anvor she‘rlarini mag‘zini bola emas ,kattalar ham chaqa bilmaydurlar .Ammo ulug‘ shoirning otashin nafasidin bul go‘dak bolaning yuragiga bir alanga tushubdur .Iloho yomon ko‘zlardan asrasin .

Muhammad Ali : (Mirsayidga qarab) Rost aytursiz inim .(G‘iyosiddinga qaraydi )Yazna har kim oldida Movlononing o‘shal she‘rini o‘qita bermang , ko‘z tegadur .

Mirsayid : Ko‘zlari o‘tkir , peshonasi keng .Odam bo‘ladur bu bola ! O‘qiting bu o‘g‘lonni .

G‘iyosiddin : Albatta o‘qiturmiz .Alisherbek o‘tkir zehnlin ,tez idrokli .Hozirda Husayn birla maktab ta‘limini olmoqda .Inshooloh , madrasalarda ha ta‘lim oladur .

Mirsayid : Hozirdan kitob o‘qishga , she‘r yod olishga qiziqsa nasib etsa jiyanimiz buyuk shoir bo‘lg‘usidir .

G‘iyosiddin : Iloho , aytganingiz kelsin .Yaxshi niyat - yorti mol .

Muhammad Ali : Qani bir duo qilaylik .Ovmin .Alisherbek ulug‘ alloma , shoirlarning sultonini bo‘lsin .Tangrim uni yomon ko‘zlardan yomonliklardan asrasin .Ota -onasiga , elimizga manfaatli , mehr - muhabbatli hamda imon -e‘tiqodli farzand bo‘lsin .Ovmin , Allohu akbar !

### **3.Oybekning ”Bolaning ko‘ngli podsho “hikoyasi asosida inssenirovka sahna ko’rinish**

Qatnashuvchilar :

Azam - Musoning do‘sti

Muso - Oybek (bolaligi)

Mirahmad ota - bo‘z to‘quvchi

Toshmuhammad -Oybekning bobosi

Sobir baqqol - sotuvchi

Ona - Musoning onasi

Azam : (chopib keladi , qo‘lida bir tilim handalak ) Dadam olib keldilar ..Handalak olib bering degandim .Uyimizda yana bor .

Muso : Shirinmi ? Juda shirin bo‘lsa kerak -a ?

Azam : Ah juda shirin .

(2ta bobo bo‘z to‘qib , suhbatlashib turgan edi )

Mirahmad ota : Bilaman , bilaman .Musulmonqulning odami edi , u shaytonga ham dars berardi .

Toshmuhammad ota :Balli esingizda ekan .Ana shu oqpadarga baqamti kelib qolsam bo‘ladimi ? Men otda, u yayov .Qo‘limda shashpar ...

Mirahmad ota : O‘ziyam devday baquvvat ,zug‘umli yigit edi-da .

Muso : (bobosiga qarab) Bobo handalak olib bering .

Toshmuhammad ota : Tek tur huvari .Hali pishgani yo‘q .

Mirahmad ota : U zamonlarni unutib bo‘ladimi ? Musulmonqul bilan Toshkand begi Azizbek juda katta jang boshlagan edi .

Toshmuhammad ota : Bilaman , shunda Qo‘on xonligi qamalda qolgan edi .Shaharga kiradigan suv yollari ham berkitilib ,.xalq nihoyatda suvsizlikdan qiynaltdgandi .

Muso : Bobo handalak pishgan .Azam yeb turibdi

Mirahmmag‘ota - Qara menga Muso .Men senga ashula aytib beraman .

Daryo toshqin ,suvlar tiniq o‘tolmayman-o ,

Otim oriq ,manzil uzoq ,yetolmayman-o .

Muso : Bobo , yuring handalak olamiz .

Toshmuhammad ota : Mirahmad keyin suhbatlashamiz .Nima qilaman bola-da .Bolaning ko‘ngli poshsho .

Mirahmad : Mayli Toshmuhammad hechqisi yo‘q .Bo‘zlarni erta ko‘k bo‘yoqqa bo‘yaymiz .

### **4. Alisher Navoiyning ”Hayrat ul -abror “asaridan ”Sher bilan Durroj “hikoyasi asosida sahna ko‘rinishi (Qo‘g‘irchoq teatri )**

Obrazlar :sher va uning bolasi , durroj qush , ovchi .

Durroj :(vahima bilan pirillab uchadi )

Ajab zamonlar ko‘rdim la -la

Tog‘u toshlarni kezdim la-la

Sher bolasi : Voy, voy ,oyijon tishingiz yelkamga botdi ..Juda og‘rib ketdi .

Sher : Kechir bolajonim .Ataylab qilmadim .Seni yovuzlardan asramoqchi edim .Durrojga ham hayronman .To‘satdan pirillab uchib ,hamma yoqni vahimaga soladi .

Sher :Durroj ,hoy durroj .Mening senga hech qasdim‘, dushmanligim yo‘q .Xotirjam bo‘lib , meni o‘zingga ishonchli do‘st deb bil .

Durroj :Ey o‘rmon shohi !.Men hayvonlar hujumidan qo‘rqib vahimaga tushaman .Sher : Qo‘rquvni yig‘ishtir , Menga do‘st bo‘l .Men seni sho‘x kuylaringni eshitib shod bo‘lay .Agar senga biror ziyon yetsa yordam qo‘lini cho‘zaman .Har qanday dushman tuzog‘idan xalos qilaman .

Durroj :Sen bilan do‘stlashmoq mening orzuyim edi .Juda xursandman .Endi xavf - xatardan qo‘rmasdan yashayman .

Eyyy o‘rmon ahli , eshitinglar Sherxon mening do‘stim bo‘ladi .Ha-ha ha

Durroj :Yolg‘on so‘zlamasam bo‘lmaydi-da .Voy -voy...voydod !Qutqaringlar ! Yordam bering , yordam .Sherxon qayerdasan !Qutqar meni ...

Sher :(yugurib keladi ) Qani kim senga hujum qildi ?Qayerda u nobakor ?

Durroj :Vah -vaha ishondingmi ? Aldadim .aldadim .Darrov ishonding-a .Boplاب laqillatdim .

Sher : Yolg‘on gapirma oxiri voy bo‘ladi .To‘g‘rilar oldida yolg‘on qoralanadi .Yordam zarur ekan deb chopib kelaveribman-a .

Durroj : Xo‘p -xo‘p .Bundan buyon yolg‘on so‘zlamayman .

Durroj : (qo‘shiq aytadi )

Ko‘p yurtlar kezdim la-la

Tog‘larni ko‘rdim la -la

Yana do‘stimni sinab ko‘rsammi ?Kelarmikin ?

Voy , voy , voydod .Falokat !!! .Yordamga shoshiling .Yordam bering .Sher do‘stim .Meni tutib olishdi .Yordam ber .

Sher bolasi : Oyijon , eshitdingizmi ?Durroj yordamga chorlayotir .Xavfga duch kelgan shekilli ?

Sher : Bu Durrojni navbatdagi yolg‘oni bo‘lsa kerak .Parvo qilma ,u yolg‘onchi .

Sher bolasi : Oyijon , bu safar chindan ham ko‘ngilsizlik bo‘lgandir .Yordam bering .Do‘stingizku axir !

(Sher chopib boradi .Durroj esa kuladi )

Durroj : Xa, xa ,xa ...Boplاب aldadimmi ? Ishondinglarmi ?Aldadim ,aldadim !!!

Sher :Durroj yaxshi ish qilmayapsan .Yolg‘onchilik yomon odat .To‘g‘rilar safida bo‘lgin .Aks holda baloga yo‘liqasan .

Durroj :Xo‘p xop ,do‘stim ,boshqa yolg‘on so‘zlamayman .

(Durroj kunlarning birida haqiqatan ham ovchi tuzog‘iga tushib qoladi )

Durroj :Voy , voy , voydod .Yordam bering .Sherxon qayerdasan .Yordam ber .Tuzoqqa tushdim .Yordam bering ,yordam .

Sher bolasi :Oyijon , Durroj yana yordamga chaqirmoqda .

Sher :Durroj yolg‘on gapirish odatini tashlamadi .E‘tibor berma .

Ovchi : Tuzog‘imga antiqa qush ilinibdi .Omadim keldi bugun .(Durroj turgan qafasni ko‘tarib ketadi )

### **Ayrim so‘zlar izohi**

**Drama** -muallif nutqisiz , sahnada ijro etish uchun mo‘ljallangan badiiy asar

**Inssenirovka-** (lotincha insurgents )nasriy va nazmiy asarlarni teatr uchun qayta ishslash

**Monolog** - grekcha “mono”-bir , “logos” -so‘z , bir kishi tomonidan ijro etiladigan parcha

**Diolog** - yunoncha “dialoges ”ikki kishining o‘zaro suhbatlashuvi

**Obraz** -keng ma’noda ijodkorning fikr -tuyg‘ulari singdirilgan hayot manzarasi , tor ma’noda badiiy asarda aks ettirilgan inson siymosi

**Remarka** -(Fransuzcha Remarque belgi izoh) diramatik asarda muallif tomonidan tomonidan beriladigan izohlar

**Repetitsiya** -(lotincha repetito -qaytariq ) mashq , tayyorgarlik ko‘rish

**Sujet** - badiiy asarning asosiy mazmuni ,ketma -ket rivojlanib boradigan voqealar tizimi

**San’at** - “sun”, ya’ni “yaratmoq ”so‘zidan olingan bo‘lib yaratish boqiylikni obrazlar vositasida aks ettirish

### **Foydalilanigan adabiyotlar :**

1.Erkin Xudoyberdiyev . Adabiyotshunoslikka kirish : Oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun darslik . T.: “ Sharq ” ,2008 .-368b

2.Ahmedov Sunnat , Qosimov Begali , Qo‘chqorov Rahmon , Rizayev Shuhratillo .Adabiyot .Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik.T .“Sharq ” , 2020 - 272b.

3.Rustamov Vahobjon .Ssenariynavislik mahorati .o‘quv qo‘llanma .T.: ”Barkamol fayz media ”2017, 204b .

4.O‘zbek tilining izohli lug‘ati .-Toshkent :“O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi ” Davlat ilmiy nashriyoti , 2006.

5.Mirkarim Osim.Karvon yo‘llarida .- T.: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti , 1987 .

Movlonova Larisa .“Bahor qaytadi “.-T.: “Voris ” nashriyoti ,2012 .

6.www.ziyouz.com kutubxonasi .